

O'ZBEKISTON

ISSN 2181-502X

QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI

№8, 2024

Agrar-iqtisodiy, ilmiy-ommabop jurnal

**31-avgust — Qatag'on qurbonlarini
yod etish kuni**

**Qatag'on qilingan
yetakchilarimizning
taqdiri barchamizni
mustaqilligimizni
qadrlashga, uni
asrab-avaylashga
undaydi.**

SH. MIRZIYOYEV

tahlil, Korrelyatsion tahlil, Omillar tahlil, Diskriminant tahlil, "Uyalar tahlili" "Konjayt Mesurment", Modellar banki, Tovarlar shakli modeli, narxni aniqlash modeli Manzilni tanlash modeli, Mediya-miks modeli kabi yo'nalishlarda innovatsion fikrlash jihatlarini berishi va u esa samarali iqtisodiy tizim sifatida qulaydi.

Shohijahon MUXITDINOV,
"Turizm va marketing" kafedrası mudiri,
Anvar UTKIROV,
mustaqil tadqiqotchi,
Qarshi davlat universiteti.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi PQ-4022-sonli "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2018 y.
2. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Samadov A.N., Sharipov I.B. Marketing. Darslik. - T.: Iqtisodiyot, 2013. -346 b.
3. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali

UO'T: 332.1:338

TADQIQOT

TURIZM VA MEHMONXONALARDA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY TA'MINOTI

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm va mehmonxonalarda umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishning uslubiy ta'minoti va umumiy ovqatlanish jamiyatda, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda umumiy ovqatlanish tarmog'ini rivojlantirish vazifalari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрены методическое обеспечение развития общественного питания в туризме и гостиницах, значение общественного питания в обществе и развитии экономики, а также задачи развития сети общественного питания.

Abstract. This article discusses the methodological support for the development of public catering in tourism and hotels, the importance of public catering in society and economic development, as well as the tasks of developing a public catering network.

Kirish. Milliy iqtisodiy siyosatni to'g'ri shakllantirish iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani va hayotning boshqa sohalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun davlatlar iqtisodiy islohotlar va loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishda yordam berish uchun iqtisodchilarni faol jalb qilmoqda.

Birinchidan, yalpi ichki mahsulotni va milliy daromadning ko'payishiga tegishli hissa qo'shadi.

Ikkinchidan, xodimlarning mehnatga layoqatlilik salohiyatini va ularni mehnat unumdorligini oshirishga tegishli imkoniyatlarni yaratadi.

Uchinchidan, aholining bandligini ta'minlaydi, yangi ish o'rinlarini yaratib beradi.

To'rtinchidan, aholining pul daromadlarini oshirishga, ularni harid qobiliyatining ortishiga ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchidan, moddiy va ma'naviy resurslarni tejamli sarflash orqali oziq-ovqat resurslarini tejashga erishiladi.

Uy sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini tejamli va ratsional ishlatish umumiy ovqatlanishdagi kabi tashkil qilinmaydi. Ushbu sohani takror ishlab chiqarish jarayonini barcha funksiyalarida ishtiroki, uni jamiyatni ijtimoiy – iqtisodiy hayotida faol ta'sir qilishini namoyon qiladi. Umumiy ovqatlanish tarmog'ini rivojlantirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo qiladi:

- ovqatlanish korxona (shahobcha) larini tiplarini (aholini mintalitetiga moslab) takomillashtirish, ularni joylashishini ratsionallashtirish;
- mahsulotlar sifatini yaxshilash ularni ratsional iste'mol sifatini ilmiy asoslangan normalarga moslashtirish;
- ovqatlarni iste'mol kompleksiga moslashtirish

(noxorlik, tushlik, kechlik, to'y marosimlari va h.k.);

- ovqatlanish jarayonini estetik–madaniy jihatlarini ta'minlanuvchilar (iste'molchilar) talablariga moslash;

- ovqatlanish sohasini industriyalashtirish, texnologiyasini takomillashtirish, xizmatini yangi progressiv usullarini joriy qilish;

- aholini mentalitetidan kelib chiqqan xolda xizmatlarni chet el tajribalaridan foydalangan xolda takomillashtirish kabilardir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyo allomalarining asarlarida iqtisodiyotga ta'luqli g'oyalar, xo'jalik yuritish bo'yicha fikrlar ko'pdan ko'p uchraydi. Ularning qatoriga Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xosxojib, A.Temur, Ulug'bek, A.Navoiy kabi mutafakkirlarning ijodlarini kiritish mumkin. "Temur tuzuklari"da iqtisodiyotga, davlatni boshqarishga oid va hozirgi zamonda ham o'z ahamiyatini yuqotmagan iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'l – yuriqlari va qoidalarini topish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Analiz va sintez tadqiqot usuli bo'lib, umumiy mazmuni yaxlitlikni alohida tarkibiy bo'limlarga (xususiylikka) ajratish va yaxlitlikni alohida tarkibiy bo'limlardan umumiylikni yaratish jarayoni tushuniladi. Bular ham tadqiqotni mantiqiy usullaridandir. Iqtisodiy amaliyotda bu usullardan keng foydalaniladi. Bunga asos bo'lib, "Iqtisodiy tahlil nazariyasi", "Xo'jalik faoliyatining iqtisodiy tahlili" degan fanlarning mavjudligi hisoblanadi. Ovqatlanish korxonalari iqtisodiyoti fan sifatida yuqorida keltirilgan falsafaning usullaridan va boshqa fanlarda ishlatiladigan ko'p arsenalni usul va uslublarni o'z predmetini o'rganishda ishlatadi.

Natijalar va munozara. O'zbekiston statistik tasniflagichida ovqatlanish alohida sanoat sifatida ajratilmagan. Ovqatlanish-bu tayyor ovqatni ishlab chiqarish va sotishga va aholi tomonidan xomashyo mahsulotlarini iste'mol qilish jarayoniga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan savdo sub-filiali (quyi tizimi) sifatida tavsiflanadi. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi tegishli idoralarining iste'mol tovarlari ichki savdosini rivojlantirish konsepsiyasida mustahkamlangan, bu yerda ovqatlanish tizimi ichki savdoning tarkibiy qism-laridan biri sifatida ajratilgan. "Ovqatlanish xizmatlarini – turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalaridan tashkil topgan, aholining ovqatlanishini tashkil etuvchi,

shuningdek, ovqatlanish korxonasida ham, tashqarida ham tayyor mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan iborat iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i" deb ta'riflash mumkin. Bunda dam olish va boshqa qo'shimcha xizmatlarni tashkil etish uchun xizmatlar keng ko'lamli ta'minlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

O'zbekistonda ovqatlanishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalariga quyidagilar kiradi:

- Butun ovqatlanish tarmog'i korxonalari sonining ko'payishi. Barlar va kafelar kabi korxonalar soni, ayniqsa, jamoat tarmog'ida oshdi va ixtisoslashtirilgan tarmoqning dam olish markazlaridagi oshxonalar (korxonalar soni 3 baravar oshdi), oshxonalar soni esa sezilarli darajada kamaydi (korxonalar soni 3 martaga kamaydi). Bularning barchasi ovqatlanish korxonalari aylanmasining o'zgarishi barqaror o'sish shakliga ega bo'lishiga olib keladi;

- Ovqatlanish korxonalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga iste'molchilarning talabini oshirish. Iste'molchining tobora ortib borayotgan talablarini qondirish uchun ovqatlanish sohasida ishlaydigan korxonalar ovqatlanish sohasida tajriba almashish va yuzaga keladigan muammolarga yechim topishga qaratilgan korporativ treninglar va turli xil professional forumlarni o'tkazadilar;

- Ovqatlanish bozorining notekis rivojlanishi. Notekis rivojlanish ham sifatli, ham geografik xususiyatga ega. Viloyatlarning markaziy shaharlarida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati viloyatlarning qolgan qismida ushbu ko'rsatkichdan ancha yuqori;

- Ovqatlanish bozoriga yangi o'yinchilarni kirishi. Samarqand shahrining doimiy rivojlanishi ovqatlanish sohasida mintaqaviy hamda butun O'zbekiston va xatto jahon darajasidagi asosiy o'yinchilarni jalb qiladi.

Katta tarmoqlarning ovqatlanish korxonalarining ochilishi mavjud bo'lib, bu o'z navbatida raqobatning kuchayishiga va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi. Ovqatlanish muassasalari soni ortib borayotgan yanada hamyonbop narxlash masalasini ko'ndalang qo'yadi hamda ovqatlanish xizmatlari narxi va sifati o'rtasidagi muayyan tenglikni tashkil etish boshlanadi. Ovqatlanish korxonalari sohasidagi yangilik-bu faoliyat natijasi (xizmat, mahsulot, texnologiya yoki uning alohida elementlari, xizmat faoliyatini yangicha tashkil etish va boshqalar),

iste'molchilar yehtiyojlarini yanada samarali qondirishga qodir bo'lishi kerak.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalarga zamonaviy yondashuv tobora ko'proq innovatsiyalarni jarayon sifatida ko'rib chiqishga asoslangandir. Asosiy e'tibor yangilanish va doimiy takomillashtirish jarayoniga qaratilgan bo'lishi kerak. Ovqatlanish sohasidagi innovatsiyalar ovqatlanish sohasida ishlaydigan korxona rivojlanishining zarur elementidir. O'zgarishlar odatda oxirgi foydalanuvchiga mahsulot va xizmatlarni tayyorlash, yetkazib berish bilan bog'liq ichki jarayonlarga tegishli bo'ladi. Bu biznes jarayonlarini to'liq qayta qurish yoki asosiy jarayonlarda doimiy jiddiy o'zgarishlar strategiyasini bo'lishini talab etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, ovqatlanish menyusida ovqatlanish korxonalari

o'z auditoriyasiga turli xil taomlar va ichimliklar taklif qiladi. Bu turli xil pazandalik mahsulotlarini ishlab chiqish va taqdim etishni, turli fasllar uchun maxsus menyularni va mijozlarning afzalliklarini o'z ichiga oladi. Mahsulot sifati bo'yicha esa foydalanilayotgan mahsulotlar sifatini ta'minlash muhim - yangilik, soflik, tabiiylik va xavfsizlik standartlariga muvofiqligi asosiy omillardan biridir. Mahsulotlar va yetkazib beruvchilarning sifatini nazorat qilish korxona muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydi. Mahsulotlarni xarid qilish- korxonaning barcha kerakli mahsulotlar va ingredientlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan samarali xarid tizimini ishlab chiqish kerak. Bunga ishonchli yetkazib beruvchilarni izlash va tanlash, narxlar va hamkorlik shartlarini kelishish kiradi.

Malika QURBONOVA,
Qarshi davlat universiteti doktoranti.

ADABIYOTLAR

1. Пардаев М.Қ., Исроилов Б.И. Иқтисодий таҳлил. Ўқув қўлланма, 1-2 қисм, Тошкент, «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 2001 й
2. Йўлдошев И.К. Савдо корхоналари иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. Т. ТДУ., 2005 й.
3. Статистические сборники Госкомстат Узбекистана: «Узбекистан в цифрах 2020»; «Узбекистан в цифрах 2021»; «Торговля в Узбекистане 2020»; «Торговля в Узбекистане 2021»; «Труд и занятость в Узбекистане 2021»; «Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане 2021».
4. www.worldbank.org – Xalqaro ma'lumotlar bazasi
5. www.wto.org – Xalqaro savdo tashkiloti

UO'T: 339.138.330.3(575.18)

TADQIQOT

SIRDARYO VILOYATI INVESTITSION MUHITINI MARKETING STRATEGIYASI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Abstract. Ushbu tadqiqot O'zbekistonning Sirdaryo viloyatida investitsion muhit uchun marketing strategiyasining samaradorligini baholaydi. Asosiy maqsad marketing tashabbuslarining investitsiyalarni jalb qilish va saqlab qolish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va investorlarning qoniqishiga ta'sirini baholashdir. 2015 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrda investitsiya oqimlari, iqtisodiy ko'rsatkichlar va investorlar fikr-mulohazalarini o'z ichiga olgan panel ma'lumotlar to'plami tahlil qilindi. Natijalar maqsadli marketing harakatlari va mustahkam infratuzilma rivojlanishining ahamiyatini ta'kidlab, mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Investitsiya muhiti, Mintaqaviy marketing, Investitsiya potentsiali, Yashil loyihalar, Iqtisodiy rivojlanish, COVID-19 ta'siri, Investitsiya strategiyasi

Kirish. O'zbekistonning Sirdaryo viloyati o'zining qulay joylashuvi, resurslarning mavjudligi va biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan

faol hukumat tashabbuslari tufayli investitsiyalar uchun strategik markaz sifatida paydo bo'ldi. Ushbu afzalliklarga qaramay, viloyatni poten-

O'ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI

agrar-iqtisodiy,
ilmiy-ommabop jurnal

СЕЛЬСКОЕ И ВОДНОЕ ХОЗЯЙСТВО УЗБЕКИСТАНА

аграрно-экономический,
научно-популярный журнал

Muassislar:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIK LARI

Bosh muharrir:

Tohir DOLIYEV

Tahrir hay'ati:

Ibrohim ABDURAHMONOV
Shavkat XAMRAYEV
Azimjon NAZAROV
Bahodir TOJIYEV
Ravshan MAMUTOV
Abrol VAXOBOV
Bahrom NORQOBILOV
Nizomiddin BAKIROV
Shuhrat TESHAYEV
Bahodir MIRZAYEV
Ravshanbek SIDDIQOV
Mirziyod MIRSAIDOV
Baxtiyor KARIMOV
Ibrohim ERGASHEV

2024-yil, avgust №8.

Jurnal 1906-yil yanvardan
chiqa boshlagan.

Obuna indeksi 895

Jurnaldan materiallar ko'chirib
olinganda "O'zbekiston qishloq
va suv xo'jaligi" jurnalidan
olindi, deb ko'rsatilishi shart.

MUNDARIJA

Зарбдор йилнинг залворли юмушлари	1
Х.КАРИМОВ. Бир ойда иккита байрам, уларни кимлар нишонлайди? ..	3
Ш.ТЕШАЕВ, С.А.ЛАНАЗАРОВ. Дефолиация – муҳим агротадбир	5
Д.МАРАСУЛОВА. Талабалик – юксак марраларга эришиш имкони	6
Каналларни бетонлаш сувни тежашда самара берапти	9
М.МУҲАММЕДОВА. Лойиҳанинг мақсади сувчи аёлларнинг роли ва мавқеини ошириш	10
Ёрдмчи хўжалик қўшимча даромад келтирмоқда	13
Замонавий чархпалак	14
Қорақалпоғистонда мобил сўғориш тизими оммалашмоқда	14
Ш.НОРМУРОДОВ. Фалвир сувдан кўтарилганда... ..	15
Сара уруғ юқори ҳосилдорлик омилидир	17
Такрорий экин дастурхон тўкин	18
Томчилатиб сўғориш технологияси асосида бир йилда икки ҳосил	19
Н.ШОДМОНҚУЛОВ. Сувчининг чемпион кизи	20
Izlanish ortidagi ixtirolar	22
O'zbekiston qancha meva-sabzavot eksport qilmoqda?	23
Поллиздаги табибимиз	24
Гуар мамлакатимизда янги ўсимлик	25
З.НОВИЦКИЙ, Г.АТАДЖАНОВА. Путь к оздоровлению зоны Арала и пустынных территорий	27
SH.NAMAZOV, SH.XIDIROVA, T.MEYLIYEV. Turli duragaylash usullarida yaratilgan ashyolarning birinchi yil olingan dastlabki natijalarini laboratoriya tahlillari	29
Э.РАХМАТХОДЖАЕВА, П.ИБРАГИМОВ, Б.ЎРОЗОВ, С.ЭРГАШЕВА. Ғўзанинг эколого-географик узоқ дурагайлаш натijasida яратилган тизмаларнинг тола сифат кўрсаткичлари	32
У.АБЫЛЛАЕВ, Д.УТАМБЕТОВ, Б.АБДУЛЛАЕВ. Шолининг ўта тезпишар узун гуручли «Алмаз» навининг таснифи	34
A.DENMUXAMMADIYEV, A.PARDAYEV, A.QODIROV, Z.RADJAPOV. Piyoz urug'lariga ta'sir etuvchi asosiy faktorlar va tajriba o'tkazish uslubi	36
E.TORENIYEV, R.YUSUPOV. Қовун пашша зараркундасининг кишловдан чиқиш муддати ва ривожланиш хусусияти	40
З.ХАФИЗОВА. Боғдорчиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида ердан фойдаланишни ташкил этишнинг ташкилий-техник асослари	43
A.TUXTAQ'ZIEV, X.O'LIYEV. Ғўза қатор ораларидаги қўндаланг полларни бузадиган мосламанинг иш органлари орасидаги бўйлама ва тик масофаларни тадқиқ этиш	45
K.ASTANAKULOVA, I.TURDIBEKOV, M.XOLBO'TAYEV. Mosh ekini o'q ildizining kesishga qarshilik kuchini aniqlash	47
I.ERKINXOJAYEV. Agrar sohada mahsulot yetishtiruvchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash asoslari	49
X.UMAROVA. Pillani qayta ishlash korxonalarida inqirozga qarshi boshqarish va uning o'ziga xos xususiyatlari	51
SH.MUXITDINOV, A.UTKIROV. Korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirishning divergent mexanizmining nazariy va uslubiy asoslari	53
M.QURBONOVA. Turizm va mehmonxonalarda umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishning uslubiy ta'minoti	56
D.XOLMUROTOVA. Sirdaryo viloyati investitsion muhitini marketing strategiyasi faoliyatining samaradorligini baholash	58
"Миллатчи" аталган миллатпарварлар	62

Jurnal O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2019-yil
10-yanvarda 0158-raqam bilan qayta
ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100004, Toshkent sh.,
Shayxontohur t., A.Navoiy k., 44-uy.

Tel.: +998 71 242-13-54,
+998 71 249-13-54,
+998 90 946-22-42.

Veb sayt: qxjurnal.uz
E-mail: qxjurnal@mail.ru
Telegram: qxjurnal_uz
Facebook: qxjurnal

Bosmaga topshirildi: 2024-yil 3-avgust.
Ofset usulida chop etildi.
Qog'oz bichimi 70x100 1/16.
Shartli bosma tabog'i – 5,5.
Nashr bosma tabog'i – 1,31.
Buyurtma: №14. Nusxasi 750 dona.

«HILOL MEDIA» MCHJ
matbaa bo'limida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri,
Uchtepa tumani, Sharaf va To'qimachi
ko'chalari kesishuvi.

Navbatchi muharrir – A.TAIROV
Dizayner – U.MAMAJONOV